


YOLG`IZ QARIYALAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY ISH

TEXNOLOGIYALARI

**Esirgapova Nargiza Obloqul qizi**

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo`rg`on filiali

esirgapovanargiza713@gmail.com**Norjigitova Xumora Norjigit qizi**xumoranorjigitova238@gmail.com

Ijtimoiy ish yo`nalishi 4-kurs talabalari

Ibragimov Jahongir Toshniyozovichjahongir.5066@gmail.com

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: Keksa odamlar ijtimoiy xizmatlar bo'limiga murojaati zahoti ular xizmat oluvchiga aylanadilar. Ularning tashqi ko'rinishi ijtimoiy xodimning ma'lum bir xizmat oluvchi uchun harakatlarni bajarishda javobgar bo'lishini anglatadi. Maqolada keksalar bilan ijtimoiy ishning asosiy usullariga rioya qilish kerakligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish, qariyalar, ijtimoiy ish usullari va texnologiyalari, keksalar bilan ijtimoiy ish shakllari.

Аннотация: Как только пожилые люди обращаются в отдел социальных служб, они становятся получателями услуг. Их появление свидетельствует о том, что социальный работник несет ответственность за выполнение действий в интересах конкретного получателя услуг. В статье подчеркивается необходимость соблюдения основных методов социальной работы с пожилыми людьми.

Ключевые слова: социальная работа, пожилые люди, методы и технологии социальной работы, формы социальной работы с пожилыми людьми.

Abstract: As soon as elderly people apply to the social services department, they become service recipients. Their appearance indicates that the social worker is responsible for performing actions for a particular service recipient. The article emphasizes the need to adhere to the basic methods of social work with the elderly.

Keywords: social work, elderly people, methods and technologies of social work, forms of social work with the elderly.

Kirish. Mamlakatimizda yashayotgan har bir inson qalbida insoniylik, mehrmuruvvat, bag'rikenglik kabi ijobiy hislatlar joy olgan. O'zbekiston Respubilkasi Prezidenti **SH. M. Mirziyoyev** "...nuroniyalarimizga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jumladan, pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta'minotni yaxshilash, yolg'iz qariyalar va nogironlarga davlat ko'magini kuchaytirish bundan keyin ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

"Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos ezgu fazilatlardan. Mamlakatimizda yoshi ulug' insonlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zotan, nuroniyarlarni e'zozlagan kam bo'lmaydi"

Qarilik , keksalik (qarish) — organizm hayotining yoshga bog'liq muayyan bir davri, muqarrar ravishda yuz beradigan jarayon. A'zo va sistemalarda o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berib boradi, bu esa asta-sekin organizmning hayotga moslashuv imkoniyatlari susayishiga olib keladi. Odamlarning Qarilik davri 75 yoshdan keyin boshlanadi (90 yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko'rvuchilardir), bu fiziologik Qarilikdir bunda aqliy va jismoniy quvvat, ma'lum ish qobiliyati, xushchaqchaqlik va atrofga qiziqish saqlanadi. Turli noxush tashqi va ichki ta'sirotlar barvaqt yoki patologik Qarishga olib keladi. Odatda, Qarishning dastlabki belgilari odamda yetuklik davridan (shartli ravishda 60 yoshdan) so'ng boshlanadi. Lekin aslini olganda, Qarish organizmning o'sishi va rivojlanishi to'xtagandan keyin sezila boshlaydi. Qarish turli to'qima va a'zolarda bir vaqtda boshlanmaydi va turli darajada kechadi, u organizm hujayralari yashash xususiyatlarining asta-sekin susaya borishidan iborat.

“Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’milot huquqiga ega”¹. Ushbu konstitutsion jumlalar keksalar va qarilarga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarning ham ifodasini ko‘rsatib beradi va kafolatlaydi (reabilitatsiya, tibbiy va statsionar yordamlar, sanatoriya-kurort, pensiya va nafaqalar ta’minoti, ijtimoiy xodim personal xizmatlari va h.k.).

Keksalar haqida ularga ko`rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar bo`yicha ko`plab qonun hujjatlarda ham keltirilgan. Masalan, Prezidentning 27.12.2023 yildagi 410-sont «O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan ushbu yo‘nalishda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab qo‘yildi:

- o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni aniqlash tartib-taomillarini optimallashtirish va raqamlashtirish;
- ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etish;
- o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarning salomatligi va turmush sifatini yaxshilash orqali ularning ijtimoiylashuvini ta’minlash;
- ijtimoiy himoya tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy ahvoldidan kelib chiqib tabaqlashtirilgan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini joriy etish.²

Yolg‘iz qariyalar bir qator ehtiyojlarga ega bo‘lishi mumkin, jumladan:

- Ijtimoiy aloqalar: Yolg‘izlik va ijtimoiy izolyatsiya hissiyotlari ko‘pincha depressiya, xavotirlik va salomatlik muammolariga olib keladi.

¹ O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi - (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y)

² Prezidentning 27.12.2023 yildagi 410-sont «O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori

- Sog'liqni saqlash: Sog'liq muammolari, surunkali kasalliliklar va tibbiy yordamga erishish qiyinligi.
- Iqtisodiy ta'minot: Pensiya daromadining pastligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va qarzga botish xavfi.
- Uy-joy: Arzon va xavfsiz uy-joyga muhtojlik, uyda xizmat ko'rsatish va ta'mirlash imkoniyatining yo'qligi.
- Xavfsizlik: Jinoyat qurboni bo'lish xavfi, uyda xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati.
- Psixologik yordam: Depressiya, xavotirlik, qayg'u va boshqa psixologik muammolarni yengishda yordamga muhtojlik. Bu borada ijtimoiy xodimlar ushbu qariyalikda kuzatiladigan ehtiyojlarni o`rgangan holda ko`plab yordamlarni taqdim etishi mumkin. Ularning muammolarini yechimini samarali hal qilish uchun turli keyslar yaratish orqali juda ko`plab natijalarga erishilmoqda. Bundan tashqari yolg`iz keksalar bilan ish olib borishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud:
 - Resurslarning cheklanganligi: Ijtimoiy xizmatlar uchun mablag'ning yetishmasligi.
 - Kadrlar yetishmasligi: Malakali ijtimoiy xodimlarning kamligi. Oldinlari yolg`iz keksalar uchun xizmat ko'rsatadigan malakali ijtimoiy xodimlar juda kam bo`lgan. Buning sababi yolg`iz keksalarga e`tibor kam bo`lgan. Bugungi kunda esa yolg`iz keksalarga e`tibor ancha yuqori darajada. Ya`ni unga misol qilib Inson ijtimoiy xizmatlar markazi faoliyat olib bormoqda va bunda ijtimoiy xodimlar bilan birqalikda ijtimoiy xodim assistentlari ham yolg`iz keksalarga yordam ko`rsatib kelmoqda.
 - Texnologik savodxonlikning pastligi: Qariyalarning texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining yo'qligi. Bugungi zamонавија jamiyatimizda barcha xizmat va faoliyatlar electron tarzda yuritilmoqda. Lekin ko`pchilik qariyalar electron hujjatlarni tushunmaganligi sababli ko`plab muammolarga duch kelmoqda
 - Ijtimoiy stigma: Yordam so'rashdan uyalish. Bizning jamiyatimizda shunday streetip borki fuqarolar yordamga muhtoj bo`lsa ham ular davlatimiz tomonidan

ko`rsatiladigan yordamlarni so`rab murojaat qilishga uyaladilar. O`zlarining huquqlarini bilmaydi.

Keksalar uchun xorijiy davlatlarda quyidagi yangi texnologiyalarni ko`rishimiz mumkin.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi keksa yoshdagi odamlarga oila a'zolari va do'stlari bilan yaxshiroq aloqa o'rnatishga yordam berdi, shuningdek, ko'plab keksalarning uy sharoitlarini asta-sekin o'zgartirdi, bu JSSTning BMTning Sog'lom qarish o'n yilligida yoshga mos muhit yaratishga chaqirig'ini aks ettirdi . Shunday qilib, ba'zi tadqiqotchilar keksa aholi manfaati uchun texnologiyaning afzalliklari orqali kengroq ijtimoiy resurslarni (masalan, ko'ngillilar, haq to'lanadigan ishchilar va boshqa "begona odamlar") olib kelish uchun mo'ljallangan yaxshiroq mahalla yoki jamoa tushunchasini o'rgandilar .

Qo'shma Shtatlardan kelganlar yaxshi mahallani yolg'izlik va qariyalar kabi zaif aholining g'amxo'rlik qilishdagi to'siqlarini hal qiladigan mahalla deb bilishgan. Ular 1 yil davomida talabalar ko'ngillilari tomonidan jamiyatda yashovchi keksa odamlarga haftalik telefon qo'ng'iroqlari uchun yaxshi qo'shnichilik dasturini yaratdilar. Dastur nafaqat keksa yoshdagi muammolarni aniqlash va ularga murojaat qilish uchun boshqa yordam qatlagini taqdim etdi, balki qo'ng'iroq qiluvchiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aqli shahar kun tartibi texnologik o'zgarishlarni amalga oshirishga, shuningdek, qarish uchun shahar resurslaridan foydalanishni yaxshilashga harakat qildi. Li va Vulrix Xitoyning Chongqing shahridagi uch xil mahallada keksa odamlar bilan sifatli tadqiqot o'tkazdilar.³ Ular Xitoydagagi aqli shaharda yashovchi keksa odamlarning tajribasini o'rganib, aqli shahar va yoshga do'st kun tartibini keksa odamlar uchun ijobiy ijtimoiy natijalarni qo'llab-quvvatlash uchun qanday qilib birlashtirish mumkinligini o'rganishdi. Ular ijtimoiy tengsizliklarni kengaytirish,

³ .Kim D, Bian H, Chang CK, Dong L, Margrett J. Uy sharoitida qarishni kuzatish texnologiyasi: qamrovni ko'rib chiqish. Interact J Med Res. (2022) 11:e39005. 10.2196/39005 [DOI] [PMC bepul maqola] [PubMed] [Google Scholar]

xavfsizlik va xavfsizlik masalalari hamda aqli shahar siyosati va amaliyotini birgalikda ishlab chiqarishdan chetlashtirish kabi muammolarni aniqlashda salomatlik va farovonlik va ijtimoiy bog'liqlikni yaxshilash potentsialini aniqladilar.

AQSh:

- "Aging in Place" dasturlari: Qariyalarning o'z uyida qolishlariga yordam beradigan dasturlar. Ushbu dasturlar uy sharoitida tibbiy yordam, transport, ovqat yetkazib berish va uy ishlarida yordam kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi. Texnologiyalar ushbu xizmatlarni muvofiqlashtirish va monitoring qilishda muhim rol o'yndaydi.
- Telemeditsina: Uzoqdagi qariyalar uchun telemeditsina xizmatlari keng qo'llaniladi. Masalan, video konsultatsiyalar, masofaviy monitoring va elektron retseptlar.
- Yiqilishni Aniqlash Texnologiyalari: Yiqilishni aniqlaydigan sensorlar, aqli soatlar va bilaguzuklar qariyalar uchun xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'yndaydi.
- Robo-kompanyonlar: Robo-kompanyonlar yolg'iz qariyalarga hamroh bo'lish, suhbatlashish va dori ichish vaqtini eslatish uchun ishlatiladi.

2. Yaponiya:

- Robotehnika: Yaponiya keksalarning qarovida robotlardan keng foydalanadi. Robotlar kundalik vazifalarni bajarishga yordam beradi, masalan, og'ir narsalarni ko'tarish, ovqatlantirish va hojatxonaga borishda yordam berish.
- Sensorlar bilan jihozlangan uylar: Sensorlar qariyalarning harakatini kuzatib boradi, yiqilishni aniqlaydi va favqulodda vaziyatlarda avtomatik ravishda yordam chaqiradi.
- Ijtimoiy robotlar: Ijtimoiy robotlar yolg'iz qariyalarga hamroh bo'lish, suhbatlashish va mashq qilishga undash uchun ishlatiladi.

3. Buyuk Britaniya:

- "Social Prescribing" (Ijtimoiy Retsept): Shifokorlar bemorlarga dori-darmonlar o'rniga ijtimoiy faoliyat va guruhlarga qo'shilishni tavsiya qiladi. Texnologiyalar ushbu ijtimoiy faoliyatlarni topish va ro'yxatdan o'tishni osonlashtiradi.

- Telehealth: Masofaviy tibbiy yordam xizmatlari, jumladan, video konsultatsiyalar, masofaviy monitoring va elektron retseptlar.
- Uy sharoitida monitoring: Sensorlar va texnologiyalar orqali qariyalarning uyidagi faoliyati va salomatligi kuzatib boriladi.

4. Kanada:

- "Naturally Occurring Retirement Communities" (NORCs) dasturlari: Qariyalar ko'p yashaydigan hududlarda ijtimoiy xizmatlar va yordamni tashkil etishga qaratilgan dasturlar. Texnologiyalar qariyalarning ehtiyojlarini aniqlash, xizmatlarni muvofiqlashtirish va aloqalarni osonlashtirishda yordam beradi.
- Telecare: Masofaviy tibbiy yordam, monitoring va ta'lim xizmatlari.
- Aqli Uy Texnologiyalari: Aqli uy qurilmalari qariyalarning mustaqil yashashini ta'minlash va xavfsizligini oshirish uchun ishlatalidi.⁴

Xulosa

Bugungi kunda yolg'iz qariyalar bilan ishslash ijtimoiy ish tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ularning ijtimoiylashuviga, ruhiy va jismoniy holatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi zamonaviy ijtimoiy ish texnologiyalarining joriy etilishi bu sohadagi samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy maslahatlar, kundalik parvarish xizmatlarini avtomatlashtirish kabi yondashuvlar yolg'iz keksalarning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ularni qo'llab-quvvatlashda mahalliy hamjamiyat, notijorat tashkilotlar va davlat ijtimoiy xizmatlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda bu yo'nalishdagi texnologik yondashuvlarni yanada rivojlantirish orqali qariyalarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning jamiyatdagi munosib o'rmini ta'minlash mumkin bo'ladi. Yolg'iz keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishda texnologiyalardan foydalanish ularning mustaqilligini oshirish, ijtimoiy aloqalarini mustahkamlash, sog'lig'ini nazorat qilish va xavfsizligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Telemeditsina, aloqa vositalari, uy sharoitini yaxshilash texnologiyalari va sun'iy intellektga asoslangan yordamchilar kabi

⁴ Keksalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish jahon tajribasi miqyosida Suyumova Mrhabo Sherzod qizi maqolasi

innovatsion yechimlar keksalarga qulaylik yaratadi va ijtimoiy xodimlar ishini osonlashtiradi. Biroq, texnologik savodxonlikni oshirish, maxfiylikni ta'minlash va odamlar bilan munosabatlarning o'rnini bosmaslik kabi masalalarga e'tibor qaratish zarur. Chet el tajribasi va ilg'or texnologiyalarni o'rganish orqali O'zbekistonda yolg'iz keksalarga yordam berish tizimini takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi - (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y)
- 2.Prezidentning 27.12.2023 yildagi 410-sون «O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori
- 3.Kim D, Bian H, Chang CK, Dong L, Margrett J. Uy sharoitida qarishni kuzatish texnologiyasi: qamrovni ko'rib chiqish. Interact J Med Res. (2022) 11:e39005. 10.2196/39005 [DOI] [PMC bepul maqola] [PubMed] [Google Scholar]
- 4.Toshpulatova, D. T. (2021). Keksalar bilan ijtimoiy ish yuritish asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Karimova, G. A. (2020). Keksalarni parvarish qilishda ijtimoiy xizmatlar tizimi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2021-yil, 30-aprel) PQ-5110-sон. Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida.